

TOSHKENT AGLOMERATSIYASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA SEKTORLI HUDUDiy TASHKIL ETISH VA TABIIY-XO‘JALIK-URBANIZATSIYA TIZIMI BO‘YICHA BAHOLASH

*S. Tashtayeva-Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti dotsenti, g.f.n.*

Annotatsiya. Maqolada Toshkent aglomeratsiyasini tabiiy-xo‘jalik-urbanizatsiya tizimi bo‘yicha uch o‘lchovli baholash asosida hududiy tashkil etishning sektorli modelini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Aglomeratsiya hududining tabiiy resurs salohiyati, iqtisodiy faollik darajasi va urbanizatsiya jarayonlari kompleks tahlil qilinib, hudud funktsional sektorlarga ajratilgan. Har bir sektorning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari belgilanib, aglomeratsiyaning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: Toshkent aglomeratsiyasi, urbanizatsiya, sektorli model, hududiy rejalashtirish, tabiiy resurslar, iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, ekologik vaziyat.

МОДЕЛЬ СЕКТОРНОЙ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ И ОЦЕНКА ПРИРОДНО-ХОЗЯЙСТВЕННО-УРБАНИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ В ЦЕЛЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы разработки секторной модели территориальной организации Ташкентской агломерации на основе трехмерной оценки: природно-хозяйственно-урбанизационной системы. Комплексно проанализирован природно-ресурсный потенциал агломерации, уровень экономической активности и процессы урбанизации, а территория разделена на функциональные сектора. Определены социально-экономические задачи каждого сектора и обоснованы приоритеты, направленные на обеспечение устойчивого и сбалансированного развития агломерации.

Ключевые слова: Ташкентская агломерация, урбанизация, секторная модель, территориальное планирование, природные ресурсы, экономическое развитие, устойчивое развитие, экологическая ситуация.

A MODEL OF SECTORAL TERRITORIAL ORGANIZATION AND AN ASSESSMENT OF THE NATURAL, ECONOMIC AND URBAN SYSTEM FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TASHKENT AGGLOMERATION

Abstract. The article discusses the issues of developing a sectoral model of the territorial organization of the Tashkent agglomeration based on a three-dimensional assessment of the natural, economic and urbanization system. The natural resource potential of the agglomeration zone, the level of economic activity and the processes of urbanization are comprehensively analyzed, and the territory is divided into functional sectors. The socio-economic objectives of each sector are identified and the priorities aimed at ensuring sustainable and balanced development of the agglomeration are substantiated.

Keywords: Tashkent agglomeration, urbanization, sectoral model, territorial planning, natural resources, economic development, sustainable development, environmental situation.

Kirish. Dunyoda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi yirik shaharlar negizida aglomeratsiyalar shakllanishiga olib kelmoqda. Shahar aglomeratsiyalari mamlakat iqtisodiyotining o‘shish qutblari sifatida aholi, ishlab chiqarish, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini o‘zida jamlagan murakkab hududiy tizim hisoblanadi. Biroq aholining tez o‘shishi, hududiy nomutanosiblik, transport

yuklamasining ortishi, yer resurslaridan foydalanish va atrof muhitni asrash muammolarining kuchayishi aglomeratsiyalarni ilmiy asosda rejalashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Toshkent aglomeratsiyasi Markaziy Osiyodagi eng yirik urbanizatsiyalashgan hudud bo'lib, mamlakatning sanoat, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, transport va innovatsion faoliyatining asosiy qismi shu yerda mujassamlangan. Shu bilan bir qatorda shaharning poytaxtlik funktsiyasi-siyosiy, boshqaruv, milliy markazlik vazifalari, Markaziy Osiyoda har tomonlama ahamiyatining ortib borishi uning hududiy rivojlanishini kompleks baholash va barqaror rivojlanish tamoyillariga asosan funktsional tashkil etishni takomillashtirishni taqozo etadi.

Maqolaning **maqsadi** Toshkent aglomeratsiyasini barqaror rivojlantirish uchun tabiiy-xo'jalik-urbanizatsiya tizimi bo'yicha uch o'lchamli baholash asosida sektorli hududiy tashkil etish modelini asoslash hamda uning funktsional yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kompleks geografik yondashuv asosida tizimli tahlil, kartografik tahlil, funktsional zonalashtirish va integral baholash usullaridan foydalanildi. Monitoring va joylarda olib borilgan maxsus kuzatuvlar asosida hudud tabiiy-xo'jalik-urbanizatsiya tizimi bo'yicha uch o'lchamli tahlil qilindi, o'zaro aloqadorlikni aniqlash va sektorlarga ajratishda landshaft-ekologik jihatdan bir xilligi; hududni xo'jalik jihatdan ixtisoslashuvi va o'zlashtirilish darajasi hamda urbanizatsiya ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Kontent tahlil va ekologik yondashuv asosida istiqbolda aglomeratsiya shaharlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Toshkent aglomeratsiyasi mamlakat urbanizatsiyasi va shaharlarining ierarxik tizimida eng yuqori pog'onani egallaydi. Bu holat hududning Chirchiq daryosi bo'ylab kompakt joylashgani, poytaxt ta'sirida rivojlanishi, yer maydonining kichikligi, shimolda Qozog'iston bilan chegaradoshligi, Rossiyaga chiquvchi "darvoza" rolini o'ynashi, hududdagi keskin ekologik vaziyat va "poytaxtlik" xususiyati, iqtisodiy

yoʻnalishi, aholi migratsiyasi kabi oʻziga xos omillar taʼsirida shakllangan. Aglomeratsiyada hozirgi kunda 10 ta shahar va 17 ta shaharcha boʻlib, uning yadrosi-Toshkent, yoʻldosh shaharlari-Chirchiq, Yangiyoʻl respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etsada, qolgan aksariyati kichik shahar va shaharchalar hisoblanadi.

Aglomeratsiyadagi shahar va shaharchalarning joylashuv xususiyatlari ularning tabiiy-geografik sharoitlari, resurs salohiyati va transport tarmoqlari, xoʻjalik ixtisoslashuvi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bu holat hududda urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishiga taʼsir etadi.

Aglomeratsiya shakllanishi shahar va qishloqlarning markaziy shahar bilan va oʻzaro aloqalariga asoslangani uchun transport yoʻllari hisobga olinib, markazdan atrofga ketuvchi asosiy “oʻq”lar va ulardan taralgan ikkinchi darajali yoʻllar boʻylab sektorlarga ajratildi. Ular markazdan atrofga radial yoʻnalishda ketuvchi temir yoʻl, yirik xalqaro va respublika ahamiyatiga ega boʻlgan avtomagistrallar va ulardan yonga tarmoqlanib ketuvchi ikkinchi darajali yoʻllardir. Bu yoʻllar aglomeratsiyaning nafaqat ichki qismini, balki uni qoʻshni rayonlar bilan ham bogʻlab turadi. Aholi manzilgohlarining joylashuvida nafaqat markazga, balki bosh transport yoʻllariga tortilish xususiyatlarini ham koʻrish mumkin. Agar shahar ikki yoʻnalish oʻrtasida joylashgan boʻlsa u qaysi yoʻnalish bilan koʻproq bogʻlansa, oʻsha tarmoqqa kiritildi. Shunday qilib, Toshkent aglomeratsiyasi uchun 6 ta sektor ajratildi:

1-jadval

Toshkent aglomeratsiyasining sektorli tuzilishi

Sektorlar	Shahar aholi soni va ulushi, 2025 y.	Yoʻldosh shahar va shaharchalar*
Shimoli-sharqiy	227,9 /7 42,2 /1	Salor, Qibray, Chirchiq, Iskandar, Gʻazalkent, Chorbogʻ, Ulugʻbek
Sharqiy	62,4 /2 11,5 /3	Parkent, Yangibozor
Janubi-sharqiy	10,4 /1 1,9 /6	Qiziltogʻ
Janubiy	57,4 /9 10,6 /4	Toʻytepa, Yangihayot, Chigʻiriq, Alimkent, Oqqoʻrgʻon, Tuyaboʻgʻiz

Janubi-gʻarbiy	154,8 /9 28,6 /2	Eshonguzar, Chinoz, Oʻrtaovul, Yangiyoʻl, Gulbahor, Olmazor, Yangi Chinoz, Boʻzsuv, Doʻstobod
Gʻarbiy va shimoliy	27,5 /1 5,1 /5	Keles
Aglomeratsiya boʻyicha	540,4 /26 100,0 /-	

Jadval Toshkent viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

*Izoh: Toshkent aglomeratsiyasi tarkibidagi 2009-yildagi yangi shaharchalarda qishloq xususiyatlari ustun boʻlgani uchun hisobga olinmagan.

Sektorlarga ajratishdan maqsad, hududni barqaror rivojlanishini rejalashtirish, yerdan foydalanishni optimallashtirish, ekologik xavflarni kamaytirgan holda, urbanizatsiyani oqilona rivojlantirish boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu maqsadga erishish uchun tabiiy-xoʻjalik-urbanizatsiya tizimi jihatdan baholash amalga oshirildi. Bunda quyidagi koʻrsatkichlar hisobga olindi:

-Tabiiy geografik xususiyatlar: relyef, suv, ekologik vaziyat, tabiiy xavflar, yer fondi, tabiiy resurslar;

-Iqtisodiy-ijtimoiy koʻrsatkichlar: iqtisodiyot tarkibi, ixtisoslashuv, transport infratuzilmasi, aholi joylashuvi, investitsion muhit;

-Urbanizatsiya koʻrsatkichlari: shahar aholi punktlari soni, tiplari, zichligi, urbanizatsiya darajasi, shaharlararo iqtisodiy aloqalar, shaharsozlik imkoniyatlari. Mazkur koʻrsatkichlar asosida ajratilgan sektorlar quyidagicha qisqacha tavsiflandi:

2-jadval

Toshkent aglomeratsiyasi sektorlarida tabiiy-xoʻjalik-urbanizatsiya tizimi boʻyicha tahlillar natijalari

Aglomera tsiya sektorlari	Tabiiy-geografik xususiyatlari	Xoʻjalik ixtisoslashuvi	Urbanizatsiya va shaharlar rivojlanishi
Shimoli-sharqiy	Chotqol togʻ tizmasi etaklari, togʻ va togʻoldi relʼefi, Chirchiq daryosi, suv resurslari boy, rekreatsion imkoniyatlari yuqori [1]	Elektroenergetika, metallurgiya, mashinasozlik (Chirchiq), turizm, dam olish maskanlari, bogʻdorchilik va	Urbanizatsiya darajasi yuqori. Chirchiq yirik sanoat shahri, Qibray Toshkent bilan deyarli tutashgan, Boʻstonliqda turistik shaharchalar

		chorvachilik [1]	rivojlanmoqda
Sharqiy	Tog'oldi tekisliklari, unumdor bo'z tuproqlar, iqlimi dehqonchilik uchun qulay, suv resurslari yetarli	Bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, oziq-ovqat sanoati, agroturizm	Urbanizatsiya o'rta darajada. Parkent tumanida shaharlashuv o'smoqda, Toshkent ta'siri kuchayib bormoqda
Janubi-sharqiy	Angren-Ohangaron havzasi, adir va tog'oldi hududlari, foydali qazilmalarga boy	Konchilik, sement sanoati, qurilish materiallari, energetika, qishloq xo'jaligi [1]	Urbanizatsiya yuqori. Angren-Ohangaron sanoat uzeli ta'sirida shaharlar jadal rivojlangan
Janubiy	Sirdaryoga yaqin tekisliklar, sug'oriladigan yerlar, agroiklim sharoiti yaxshi [3]	Paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, chorvachilik, oziq-ovqat sanoati	Urbanizatsiya past-o'rta darajada. Asosan qishloq aholi punktlari ustun, Toshkent ta'siri ortib bormoqda
Janubi-g'arbiy	Chirchiq va Sirdaryo oralig'idagi tekisliklar, sug'oriladigan yerlar, transport jihatdan qulay	Intensiv dehqonchilik, logistika, qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari, xizmat ko'rsatish [2]	Urbanizatsiya yuqori. Yangiyo'l va Zangiota Toshkentning yo'ldosh hududlariga aylanmoqda, yangi turar-joy massivlari tez rivojlanmoqda [4]
Shimoliy va g'arbiy	Tekisliklar, transport yo'laklari, muhandislik infratuzilmasi yaxshi rivojlangan	Logistika, sanoat zonalari, omborlar, xizmat ko'rsatish, agrosanoat	Urbanizatsiya juda yuqori. Toshkent shahri bilan funktsional birlashgan hududlar, sanoat va logistika markazlari jadal shakllanmoqda

Tavsiflarga asoslangan holda har bir ko'rsatkich bo'yicha 10 balli tizimda baholandi, jami 30 balldan quyidagi ko'rinishni namoyon qildi:

3-jadval

Sektorlarni baholash va urbanizatsiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar

Sektorlar	ball	Baho	Urbanizatsiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar
Shimoli-sharqiy	28	Juda yuqori rivojlangan	Ekoturizm va rekreatsiyani kengaytirish, Chirchiq-Qibray-Toshkent transport tizimini integratsiya qilish, ekologik cheklovlar asosida shaharsozlikni amalga oshirish [4]
Sharqiy	23	Yuqori rivojlanish salohiyatiga ega	Parkentda yo'ldosh shahar funktsiyalarini kuchaytirish, agrologistika markazlari tashkil etish, muhandislik infratuzilmasini modernizatsiya qilish
Janubi-sharqiy	24	Yuqori rivojlangan	Konchilik va sanoat hududlarini ekologik modernizatsiya qilish, yangi turar-joy massivlari va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish
Janubiy	21	O'rtacha rivojlangan	Qishloq shaharchalarini rivojlantirish, transport aloqalarini yaxshilash, agrosanoat klasterlari va servis markazlarini tashkil etish
Janubi-	26	Juda yuqori	Yangi industrial parklar va logistika markazlarini

g'arbiy		urbanizatsiyalash gan	kengaytirish, jamoat transportini Toshkent bilan integratsiya qilish, shaharsozlikda "yashil hududlar" ulushini oshirish
Shimoliy va g'arbiy	25	Yuqori iqtisodiy va urbanizatsiya darajasi	Transport-logistika xablarini rivojlantirish, xalqaro avtomobil yo'laklaridan samarali foydalanish, yangi yo'ldosh shaharlar va biznes parklar tashkil etish

Jadval muallif tomonidan tuzilgan

Xulosa. Baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, aglomeratsiyaning shimoli-sharqiy va sharqiy sektori tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, turistik-rekreatsiya salohiyati, sanoat bazasi va shaharlar rivojlanishiga ko'ra eng muvozanatli hudud hisoblanadi. Istiqbolda urbanizatsiya va shaharlarni nazorat ostida rivojlantirish, sanoatni cheklash, ijtimoiy sohalar orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq. Keyingi rivojlangan sektor-janubi-g'arbiy hamda shimoliy va g'arbiy qismi bo'lib, sanoat, transport-logistika xizmatlari mujassamlangan. Garchi davlat chegaralari o'tgan bo'lsada, o'sish nuqtalari sifatida ajralib turadi. Janubiy sektor urbanizatsiya darajasi eng past va bu yerda yo'ldosh shaharlarni rivojlantirish transport-muhandislik infratuzilmasini, servis markazlari, agrosanoatni rivojlantirish orqali yangi o'sish hududiga aylantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatkodir I. Nazarov, Bekzod B. Rakhmanov, Sergey L. Yanchuk, Shuxrat B. Kurbanov, Saida K. Tashtayeva, Zulhumor T. Abdalova. Natural resource potential of industrial development of the Tashkent economic district.- International Journal of Agricultural Extension. Vol 9, No 3 (2021) /www.esciencepress.net/IJAE.-Покистон, 2021.
2. Солиев А. Иқтисодий-ижтимоий география. –Тошкент, 2014.-387 б.
3. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси.- Тошкент, 2006.-305 б.
4. Tashtayeva S., Yoqubov O. Yashil urbanizm-zamonaviy shaharlar rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida. //Fan va jamiyat 4 (1), 2022.-80-86.